



## O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

**To'laganova Dilnoza**

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

ORCID: 0009-0008-4638-6398

[yunusobod1957@gmail.com](mailto:yunusobod1957@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot O'zbekistonda ayollar tadbirkorligining rivojlanish jarayonlari, mavjud institutsional muhit hamda ushbu faoliyatni kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ayollar tadbirkorligining iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni, ularning mehnat bozorida faolligi hamda moliyaviy va institutsional resurslardan foydalanish imkoniyatlari chuqur o'rganilgan. Xususan, xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Ayollar, biznes va huquq" indeksi hamda milliy statistik ma'lumotlar asosida mamlakatda ayollar uchun yaratilgan iqtisodiy va huquqiy sharoitlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ayollar tadbirkorligi, gender tengligi, kichik va o'rta biznes, iqtisodiy imkoniyatlar, moliyaviy inklyuziya, ta'minot zanjiri, biznes muhiti, institutsional islohotlar, raqamli iqtisodiyot, mentorlik tizimi, iqtisodiy rivojlanish, Barqaror rivojlanish maqsadlari.

## ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Тулаганова Дильноза**

Университет точных и социальных наук

**Аннотация.** Данное исследование посвящено анализу процессов развития женского предпринимательства в Узбекистане, существующей институциональной среды и факторов, препятствующих расширению этой деятельности. В исследовании подробно рассматривается роль женского предпринимательства в экономическом развитии, его активность на рынке труда и возможности использования финансовых и институциональных ресурсов. В частности, на основе разработанного международными организациями, включая Всемирный банк, анализируются экономические и правовые условия, созданные для женщин в стране, и национальных статистических данных, рассматривается индекс «Женщины, бизнес и право».

**Ключевые слова:** женское предпринимательство, гендерное равенство, малый и средний бизнес, экономические возможности, финансовая инклюзия, цепочка поставок, деловая среда, институциональные реформы, цифровая экономика, система наставничества, экономическое развитие, Цели устойчивого развития.

## PROBLEMS AND OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

**Tulaganova Dilnoza**

*University of Exact and Social Sciences*

**Abstract.** *This study is devoted to the analysis of the development processes of women's entrepreneurship in Uzbekistan, the existing institutional environment and factors that hinder the expansion of this activity. The study deeply studies the role of women's entrepreneurship in economic development, their activity in the labor market, and the possibilities of using financial and institutional resources. In particular, the economic and legal conditions created for women in the country are analyzed based on the "Women, Business and Law" index developed by international organizations, including the World Bank, and national statistical data.*

**Keywords:** *women's entrepreneurship, gender equality, small and medium-sized businesses, economic opportunities, financial inclusion, supply chain, business environment, institutional reforms, digital economy, mentoring system, economic development, Sustainable Development Goals.*

### **Kirish.**

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar doirasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan dasturlar, imtiyozlar va institutsional choralar ayollarni biznes faoliyatiga kengroq jalb etishga xizmat qilmoqda. Natijada ayollar tadbirkorligining iqtisodiyotdagi ulushi bosqichma-bosqich ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat bandlik darajasini oshirish, balki oilaviy daromadlarni ko'paytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jarayoni hali to'liq shakllanib ulgurmagan bo'lib, u qator tizimli va institutsional muammolar bilan ham bog'liq. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, biznes yuritish bo'yicha yetarli tajriba va bilimlarning yetishmasligi, shuningdek, ayrim ijtimoiy stereotiplar ayollarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va kengaytirishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va bozor mexanizmlarining to'liq ishlamasligi ham mazkur sohaning samaradorligini pasaytiruvchi omillar sirasiga kiradi.

Mazkur muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash nafaqat ijtimoiy masala, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralishi lozim. Aynan shu jihatlar mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi xalqaro hamda milliy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, bu yo'nalishda turli nazariy qarashlar va amaliy yondashuvlar shakllangan. Xususan, Global Entrepreneurship Monitor (GEM) hisobotlarida ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu manbalarda ayollar tadbirkorligi darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional muhit va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq ekanini qayd etiladi.

Minniti (2009) o'z tadqiqotlarida gender omillari tadbirkorlik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan bo'lib, ayniqsa ijtimoiy stereotiplar, an'anaviy qarashlar va institutsional cheklavlar ayollarning biznes faoliyatidagi ishtirokini cheklashi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Ahl va Nelson (2010) ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda

institutsional yondashuv muhimligini ko'rsatib, normativ-huquqiy baza va madaniy muhitni takomillashtirish zarurligini ilgari surgan.

Avvalgi davr tadqiqotchilaridan biri bo'lgan Schwartz (1976) ayollar tadbirkorligini iqtisodiyotdagi yangi va istiqbolli yo'nalish sifatida baholab, uning iqtisodiy tizimdagi roli tobora ortib borayotganini qayd etgan. Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa, xususan Malik (2017) ishlarida, raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining yangi shakllari paydo bo'layotgani, innovatsion faoliyat va onlayn biznes imkoniyatlari kengayayotgani alohida ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, Klapper va Parker (2011) tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligi iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichi sifatida qaralib, moliyaviy inklyuziya darajasi bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Brush va boshqalar (2009) esa ayollar tadbirkorligining rivojlanishida ijtimoiy kapital, ta'lim va biznes muhitning ahamiyatini asoslab bergan. De Bruin, Brush va Welter (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa ayollar tadbirkorligi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida talqin qilinib, unga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilingan.

Shuningdek, Jahon bankining "Women, Business and the Law" indeksi ayollar uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni baholashda muhim indikator sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu indeks orqali ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda huquqiy muhitning roli va davlat siyosatining samaradorligi aniqlanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, u quyidagi asosiy yo'nalishlar bilan bevosita bog'liq:

- institutsional va huquqiy muhitning rivojlanganligi
- moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari
- ijtimoiy-madaniy omillar va stereotiplar
- ta'lim darajasi va tadbirkorlik ko'nikmalarining shakllanganligi

Mazkur omillar uyg'unligi ayollar tadbirkorligining rivojlanish darajasini belgilab beruvchi muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish omillarini tahlil qilishda kompleks yondashuv qo'llanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ishbilarmon ayollarning iqtisodiy hayotdagi o'rnini va imkoniyatlari xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradi. Xususan, "Ayollar, biznes va huquq" (Women, Business and the Law) indeksi ko'rsatkichlari mamlakatda ayollar uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy sharoitlar haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Mazkur ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Toshkent shahrida ishbilarmon ayollar uchun yaratilgan savdo va huquqiy muhit ko'plab yirik shaharlarga, jumladan ayrim qo'shni davlatlarga nisbatan nisbatan qulay ekanligi qayd etilgan. Shunga qaramay, boshqa statistik ma'lumotlar O'zbekistonda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki hali ham ayrim davlatlarga nisbatan past darajada ekanligini ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlar bilan taqqoslaganda ayollar va erkaklar o'rtasidagi bandlik darajasida farqlar kuzatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq vaqtini to'lanmaydigan uy ishlari va oilaviy majburiyatlarga sarflaydi. Bu esa ularning iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb qilinishini ma'lum darajada cheklaydi.

Shu bilan birga, mavjud muammolarga qaramay, so'nggi yillarda mamlakatda tadbirkorlik faoliyati sezilarli darajada kengayib bormoqda. Masalan, 2023-yilda kichik biznes subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 55 foizini tashkil etdi. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda 5,2 milliondan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda, ularning 2,1 millioni ayollar tomonidan boshqarilmoqda. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan sezilarli

darajada oshgan. Shuningdek, o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishi yuqori bo'lib, respondentlarning 55 foizi o'z biznesini boshlash istagini bildirgan. Biroq ayollar tadbirkorligi rivojlanishida muhim muammolardan biri – moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi hisoblanadi. Shunga qaramay, ayrim ko'rsatkichlar ushbu cheklovlar asta-sekin kamayib borayotganini ko'rsatadi.

Masalan, so'nggi o'n yil ichida xususiy sektor kreditlarining YaIMga nisbati qariyb to'rt baravar oshgan. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2023-yillar davomida mikromoliya tashkilotlari soni sezilarli darajada ko'paygan. Shu davr mobaynida mikromoliya tashkilotlari aktivlari olti baravarga, lombardlar aktivlari esa qariyb uch baravarga oshgan.

So'nggi o'n yillikda amalga oshirilgan bozor islohotlari natijasida O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sezilarli darajada rivojlandi. Xususan, gender tengligini ta'minlash, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda gender statistikasini takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari ham amaliy natijalar bermoqda. 4000 dan ortiq respondentlar ishtirokida o'tkazilgan so'rovlar hamda fokus-guruh muhokamalari natijalari shuni ko'rsatadiki,

O'zbekistonda ishbilarmon ayollar ko'pincha oilaviy majburiyatlar va ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq to'siqlarga duch kelmoqda. Shuningdek, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, huquqiy tizimdagi ayrim kamchiliklar va institutsional muammolar ham ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni kuchaytirish muhim hisoblanadi:

- ijtimoiy xizmatlar va parvarish infratuzilmasini rivojlantirish;
- bolalarni parvarish qilish tizimini kengaytirish;
- gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirish.

Fokus-guruh muhokamalari davomida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli o'quv yo'nalishlari ham aniqlangan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tadbirkorlik va yetakchilik ko'nikmalari;
- moliyaviy savodxonlik;
- raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- huquqiy bilimlar;
- marketing strategiyalari;
- mentorlik va ustozlik dasturlari.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish gender tengligi bilan chambarchas bog'liq. Agar ayollar ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmasa, ayollar tadbirkorligining barqaror rivojlanishini ta'minlash qiyin bo'ladi. Shuningdek, xalqaro tajriba ayollar tadbirkorligini umumiy tadbirkorlik muhitidan ajratib ko'rib chiqish to'g'ri emasligini ko'rsatadi. Mikro, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks iqtisodiy islohotlar ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda biznes inkubatorlari, startap markazlari va raqamli platformalar kabi institutsional mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznes uchun qulay biznes muhitini yaratish borasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlarining xususiyatlariga ham bog'liq. Masalan:

- qishloq xo'jaligida ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun yerga egalik qilish va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur;
- texnologiya va xizmat ko'rsatish sohalarida esa raqamli infratuzilmani rivojlantirish va raqamli ko'nikmalarni oshirish muhim hisoblanadi.

Shu sababli ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash siyosati tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jarayonida davlat organlari bilan bir qatorda xususiy sektor va fuqarolik jamiyati tashkilotlari ham muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy institutlar uchun ayollar boshqaruvidagi korxonalar istiqbolli bozor segmenti hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro donor institutlari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda vositachi rolini bajarishi mumkin. Ular tajriba almashish, axborot tarqatish va yangi dasturlarni ishlab chiqish orqali ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shadi.

Tadqiqot yakunida O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- gender tengligini ta'minlashga qaratilgan siyosatni kuchaytirish;
- ayollar mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish;
- ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini kamaytirish;
- adolatli sud tizimiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Shuningdek, davlat siyosatini takomillashtirish uchun ishonchli statistik ma'lumotlar bazasini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda, xususan 2025-yildan keyingi davrda, O'zbekiston hukumati tomonidan gender tengligi va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining natijalarini kompleks baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), jumladan:

- 5-maqsad — gender tengligi
- 8-maqsad — munosib mehnat va iqtisodiy o'sish
- 10-maqsad — tengsizlikni kamaytirish
- 16-maqsad — adolatli va samarali institutlar bilan ham bevosita bog'liq.

Shuningdek, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bolalarni parvarish qilish xizmatlari hamda kelajakda keksalarni parvarish qilish tizimini rivojlantirish ayollarning iqtisodiy faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar uchun moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi. Shu sababli moliyaviy institutlar tomonidan ayollar boshqaruvidagi korxonalar uchun maxsus kredit va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, tadbirkor ayollar uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarini rivojlantirish, mentorlik tizimini joriy etish hamda professional tarmoqlarni kengaytirish ayollar biznesining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy va institutsional islohotlar natijasida ayollar uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlar sezilarli darajada kengaydi. Xususan, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, moliyaviy xizmatlar bozorining kengayishi hamda biznes muhitini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligi rivojlanishida hali ham bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Ular qatoriga moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy stereotiplar, oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq yuklamaning yuqoriligi hamda huquqiy va institutsional

mexanizmlarning ayrim jihatlari kiradi. Mazkur omillar ayollarning iqtisodiy faoliyatini kengaytirishda muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Kelgusida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun kompleks yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan siyosatni kuchaytirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkor ayollar uchun moslashtirilgan ta'lim va mentorlik dasturlarini rivojlantirish hamda biznes infratuzilmasini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, davlat organlari, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi samarali hamkorlik ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida ayollarning iqtisodiy faolligi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi inklyuziv iqtisodiy muhit shakllanadi.

#### **Adabiyotlar/ Лумепамыпа/References:**

Ahl, H. and Nelson, T. (2010) 'Moving Forward: Institutional Perspectives on Gender and Entrepreneurship', *International Journal of Gender and Entrepreneurship*, 2, pp. 5–9.

Degryse, C. (no date) *Digitalisation of the Economy and Its Impact on Labour Markets. Working Paper*. Available at: <http://ssrn.com/abstract=2730550>

Global Entrepreneurship Monitor (GEM) (2020/21) *Women's Entrepreneurship Report 2020/21: Thriving Through Crisis*.

Malik, P. (2017) *Gendering Digital Entrepreneurship: From Research to Practice Using a Tensional Lens*. ProQuest Dissertations Publishing. Purdue University. Available at: <http://docs.lib.purdue.edu/dissertations/AAI10266070/>

Minniti, M. (2009) 'Gender Issues in Entrepreneurship', *Foundations and Trends in Entrepreneurship*, 5(7–8), pp. 497–621.

Minniti, M., Allen, E. and Langowitz, N. (2006) *The 2005 Global Entrepreneurship Monitor Special Topic Report: Women in Entrepreneurship*. Babson Park, MA: Babson College, Center for Women Leadership.

Mirziyoyev, Sh.M. (2020) *O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni joriy etish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi*. 22-sentabr. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/prezident-raqamli-iqtisodiyotsiz-mamlakat-iqtisodiyotining-kelajagi-yoq>

*O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi* (no date) Available at: <https://lex.uz>

Schwartz, E. (1976) 'Entrepreneurship: A New Female Frontier', *Journal of Contemporary Business*, 5, pp. 47–76.

Абриталина, А.С. (2006) *Женское предпринимательство: социально-экономические мотивы и факторы: диссертация кандидата социологических наук*. Саратов.